

KREDIT –MODUL TIZIMIDA O`QITISHNING TA`LIM SAMARADORLIGI

Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna

Farg`ona davlat universiteti texnologik ta`lim kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit –modul tizimida o`qitishning ta`lim samaradorligi, ta`limni tashkil etishning o`ziga xos jarayoni, o`qitishning modul texnologiyalari bayon qilingan.

“O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da mamlakatimizdagi kamida 10 ta oliy ta`lim muassasasini xalqaro e`tirof etilgan Quacquarelli Symonds World University Rankings, Academic Ranking of World Universities yoki Times Nigher Education kabi tashkilotlar reytingining birinchi 1000 ta o`rindagi oliy ta`lim muassasalari ro`yxatiga kiritish hamda mazkur oliy ta`lim muassasalarida o`quv jarayonini kredit-modul tizimiga bocqichma-bosqich o`tkazish belgilab berilgan.

Kredit-modul tizimi ta`limni tashkil etishning o`ziga xos jarayoni bo`lib, o`qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o`lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Ushbu tizimni bir butunlikda olib borish ko`p vazifali hamda murakkab jarayondir. Kredit-modul tizimi tamoyilida talabalarning mustaqil ishlashini ta`minlash, talabalar bilimni reyting asosida baholash kabi ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o`quv jarayonlarini modullashgan tizim asosida tashkil qilish;
- bir fan, kups (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni kredit mezoni asosida baholash;
- talabalarga ta`lim troektoriyasini erkin belgilash ya`ni, o`zlarining o`quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- mustaqil ta`lim olishning ulushini oshirish;
- ta`lim dactyplapining qulayligi hamda mehnat bozopida mytaxaccicga qo`yilgan talablardan kelib chiqqan holda o`zgaptipish mymkinligi.

Modul- bir nechta fan hamda kurslap kesimida o`rganiladigan o`quv rejasining bir qismi hisoblanadi. Modul talabalarda ma`lym bir bilim, ko`nikma va malakalarni hosil qilish, mantiqiy-tahliliy mulohaza yuritish salohiyatiga ega bo`lishiga qaratilgan bir nechta fanlar yoki kurslar majmui sifatida qaraladi. Bunda o`qituvchi tomonidan o`quv jarayoni tashkil qilinadi, auditoriyada va auditoriyadan tashqari jonli, video hamda audio ma`ruzalar o`qiydi, talabaning ta`lim faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qiladi. Talaba esa fan bo`yicha mavzuni mustaqil o`rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Modul kredit tizimida fanlarni mazmunan integratsiyalash muhim sanaladi. Chunki jadvalda keltirilgan fanlar soni modul kredit tizimi uchun ko`plik qiladi. Tadqiqot ishi davomida biz integrasiyaning turli jihatlarini o`rganib chiqishga harakat qildik. Tahlillar asosida integratsiyaning metodologik ahamiyatga ega bo`lgan quyidagi shaptlapini aniqlandi:

- mazmun jihatdan bir-birlariga yaqin bo'lgan har xil elementlarning mavjudligi ya'ni, tadqiqot ob'ektlarining yaqinligi, bir xil tadqiqot metodlari yoki ularning bir-biriga yaqinligi, umumiy nazariy konsepsiyalar, qonuniyatlar;

- ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda, ularni yaxlitlikka birlashtirishga ehtiyojning paydo bo'lishi;

- yaxlitlik shakllanishida zaruriy darajada komponentlar mustaqilligining saqlanishi.

Ta'lim dasturidagi barcha o'quv fanlarini o'zaro aloqasini yaratishda ta'lim maqsadi, tamoyillari va ma'nolari birliklari eng yuqori shaklini fanlar integratsiyasi ifodalaydi.

Integrativ yondashuv – mazmunan aloqador, mantiqiy bir-birini to'ldiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishdir.

Ta'lim (o'quv) dasturlarida alohida fanlarning aloqasi yagona maqsadi bo'lishi mumkin emas, bitta yaxlit yondashuv muhim, uning yordamida butun o'quv jarayonida uzviylik g'oyasi amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'quv fanlarini integratsiyasi ularni ilmiy-nazariy va amaliy tayyorlash sifatini yaxshilashda muhim vazifalarni bajaradi. Sababi ta'limda integratsion yondashuvini qo'llashda texnik va pedagogik bilimlar integratsiyasini amalga oshirish muammolari har bir bosqichda nafaqat ta'lim dasturi, balki zamonaviy talabalarni tarbiyalash va rivojlantirish masalalari hal etiladi.

Fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ta'limning mavjud fanlar tizimi muvofiqlashtirilmagan bilimlarni o'zlashtirish va ularning sintezi kerakligi o'rtasidagi ziddiyat inson hayoti va kasbiy faoliyati amaliyotida integrativ foydalanishga olib keladi. Ta'lim mazmuniga zamonaviy talablar nuqtai-nazaridan bo'lajak mutaxassis kasbiy harakatchanlik va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak, ilmiy va amaliy faoliyatida doimiy yuzaga kelayotgan o'zgarishlarga tezkorlik bilan javob berishi lozim.

Fanlararo integratsiyasini ta'minlash - hozirgi vaqtda ob'ektiv ehtiyoj hisoblanib, chunki oxir-oqibatda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyopgarligini takomillashtirishda umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha tayyorgarlikni o'zaro birlashtirish kerak bo'ladi.

Ta'lim sohasi va mazmuni sharoitlarida integrativ yondashuv asosidagi vazifalarni yangicha tushunish jarayonlarida talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish mohiyatini real tushunish muammosi mavjud.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan Blum toksomaniyasi asosidagi kredit-modul tizimi asosida o'qish va diplom olish uchun talabalar har bir fandan kredit yig'ishlari zarur. Kredit yig'ish jarayonida esa talabalardan 50% atrofida mustaqil ish talab qilinadi. Bu tabiiyki, talabalar o'z ustlarida ishlashlarini talab qiladi. Zamon o'zgarishi bilan ta'lim tizimidagi raqamli texnologiya bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalardan faqatgina fan o'qituvchisi tomonidan beriladigan materiallar bilan cheklanib qolmasdan, sillabuslarda berilayotgan qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil ish mavzulari bo'yicha integrativ tayyorgarlik ko'rishlarini talab qiladi. Tabiiyki, bu talabalardan bo'lajak o'qituvchilardan o'sib – rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti davrida raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlarini talab qiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun biz quyidagi vazifalarni hal qildik:

- adabiyotlarni tahlil qilish va bo'lajak «Texnologik ta'lim» o'qituvchining kasbiy faoliyatining funksional to'liqligini aniqlash;
- bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchining kasbiy faoliyatda maxsus kompetentligini rivojlantirish va tarbiyalash qobiliyati bo'yicha statistik tadqiqotlar o'tkazildi;
- tadqiqot natijalarini sharhladi;
- Talabalarda maxsus kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish modelini ishlab chiqish orqali uni amaliyotga tatbiq etishning baholash metodikasini tajriba-sinov ishida tekshirish..

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim shakli, balki o'z-o'zini tarbiyalash shakli ilmiy, ommabop ilmiy, o'quv va boshqa adabiyotlarni o'rganish sifatida taqdim etiladigan vositadir. Shunday qilib, o'z-o'zini tarbiyalash yo'li bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari kasbiy ta'limi uchun maqsadli faoliyatni ta'minlaydi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, kasbiy o'zini-o'zi tarbiyalash - bu bo'lgusi texnologik ta'lim o'qituvchisining o'z kasbida o'zini namoyon etishga bo'lgan motivatsiyasiga asoslangan va shaxs tomonidan ta'minlangan va professional o'zini-o'zi boshqarish asosida qo'llab-quvvatlanadigan doimiy yo'naltirilgan jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/doss/4545884>

2.Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.464 bet.

3.G.T.Hojikarimova "Kiyimlarni konstruksiyalash va modellashtirishning asosiy metodlari" Pedagogika,Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. № 1- 2023 yil. ISSN 2010 - 5320. <http://www.tdpu.uz/pedagogika@inbox.uz>

4.G.T.Hojikarimova "Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiya komponentlarini shakllantirish metodikasi" МУҒАЛЛИМ ҲӨМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, Илимий-методикалық журнал. № 5 - 2022 жыл. ISSN 2181-7138. <http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz/>

5.G.T.Hojikarimova "Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni" МУҒАЛЛИМ ҲӨМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, Илимий-методикалық журнал. № 6/1 - 2022 жыл. ISSN 2181-7138. <http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz/>

6.G.T.Hojikarimova "O'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish bosqichlari.

// Eurasian journal of law, finance and applied sciences|UIF = 8.3 | SJIF = 5.961
www.in-academy.uz

7.G.T.Hojikarimova “Bo`lajak texnologik ta`lim o`qituvchilarini tayyorlashda integrative yondashuvning didaktik imkoniyatlari” |Economy and Innovation. ISSN-2545-0573 <http://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/poland/article/view/1730>

8.G.T.Hojikarimova “ Социально-педагогические основы формирования креативности учащихся”. // Международный научный журнал «Вестник науки» (ежемесячный научный журнал), // № 6 (15) Том 5 июнь 2019 й. Стр 150-154 стр

9. G.T.Hojikarimova “Conditions for the development of artistic creatives of students in technology ” // Zamonaviy fan,ta`lim va tarbiyaning dolzarb muammolari (elektron ilmiy to`plam). №1.2020yil Urganch; Стр 68-74; UDC: 378.1

10. G.T.Hojikarimova Use of innovative courses of innovative character in increasing the quality of education and efficiency of education // Жамият ва инновациялар / Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index> 1. – ISSN 2308-4804.

11. G.T.Hojikarimova “Supporting innovative approaches in the education system // Academia 10.5958 ISSN: 2249-7137, 2021.

12. G.T.Hojikarimova “ Fundamentals Of Development Of Creative Abilities Of Students In Professional Training” // The American Journal of Applied Sciences// Volume 3 Issue 01, 2021. 54-57